


O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

70230101 – *Lingvistika (sharq tillari bo'yicha)* magistratura
mutaxassisligining malaka talablari

Toshkent-2023



ISHLAB CHIQLILGAN VA KIRITILGAN:

- Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti;

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil «21» 08 dagi 367.- sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy malaka ramkasiga muvofiq ishlab chiqilgan rasmiy me’yoriy-uslubiy xujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talabini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r	bet
1. 70230101 – <i>Lingvistika (sharq tillari bo'yicha)</i> magistratura mutaxassisligining umumiy tavsifi.....	4
1.1. Qo'llanish sohasi	4
1.1.1. 70230101 – <i>Lingvistika (sharq tillari bo'yicha)</i> magistratura mutaxassisligi malaka talabining qo'llanilishi	4
1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2. 70230101 – <i>Lingvistika (sharq tillari bilan)</i> mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlari tavsifi.....	4
1.2.1. 70230101 – <i>Lingvistika (sharq tillari bo'yicha)</i> mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari	4
1.2.2. 70230101 – <i>Lingvistika (sharq tillari bo'yicha)</i> mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari	4
1.2.3. 70230101 – <i>Lingvistika (sharq tillari bilan)</i> mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari	5
1.2.4. 70230101 – <i>Lingvistika (sharq tillari bo'yicha)</i> mutaxassisligi bo'yicha magistrarning kasbiy vazifalari	5
2. 70230101 – <i>Lingvistika (sharq tillari bo'yicha)</i> ta'lim mutaxassisligi bo'yicha magistrarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar	6
2.1. Umumiy kompetensiyalar.....	6
2.2. Kasbiy kompetensiyalar.....	6
2.3. Kvalifikatsiya	7
Bibliografik ma'lumotlar.....	8
Kelishuv varag'i	9

1. 70230101 – *Lingvistika (sharq tillari bo'yicha)* magistratura mutaxassisligining umumiy tavsifi

70230101 – *Lingvistika (sharq tillari bo'yicha)* magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlash kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi. Mutaxassislik bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining me'yoriy muddati 2 yil.

1. Qo'llanish sohasi

1.1.1. 70230101 – *Lingvistika (sharq tillari bo'yicha)* magistratura mutaxassisligi malaka talabining qo'llanilishi.

Malaka talabi **70230101 – *Lingvistika (sharq tillari bo'yicha)* magistratura mutaxassisligi bo'yicha** magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

- mazkur magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

- magistratura mutaxassisligining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talabalari;

- magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

- ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

- oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

- oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

- oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan baklavriat bitiruvchilari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 70230101 – *Lingvistika (sharq tillari bo'yicha)* mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi

1.2.1. 70230101 – *Lingvistika (sharq tillari bo'yicha)* mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari:

70230101 – *Lingvistika (sharq tillari bo'yicha)* – “Tillar” ta'lim sohasiga oid mutaxassislik bo'lib, barcha ta'lim muassasalarida mutaxassislikka oid fanlar hamda sharq va g'arb tillarini o'qitish, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy tadqiqot institutlari, markazlari, ilmiy ishlab chiqarish birlashmalarida ilmiy tadqiqot faoliyatini yuritish, nodavlat va notijorat tashkilotlarida, markaziy va mahalliy davlat boshqaruvi organlarida, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarida, xorijiy sharq mamlakatlari bilan bog'liq davlat va jamoat tashkilotlari; turli mulkchilik shaklidagi korxonalarda sohaga oid kompleks masalalarni hal etish, shuningdek kasbiy ko'nikmaga, mutasaddilik qobiliyatiga yo'naltirilgan inson faoliyatining vositalari, usullari, metodlari va uslublarining majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. 70230101 – *Lingvistika (sharq tillari bo'yicha)* mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

- oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalarida mutaxassislikka oid fanlar hamda sharq va g'arb tillarini o'qitish bo'yicha pedagogik faoliyat;

- Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlari va markazlarida hamda oliy ta'lim muassasalarida sharq adabiyotshunosligi sohasida ilmiy va amaliy tadqiqot, nazariy va amaliy tahlil, modellashtirishni amalga oshirish jarayonlari;

- davlat va mahalliy boshqaruv organlari, iqtisodiyot va moliya boshqaruvi organlarida boshqaruv jarayonlari;

- davlat va nodavlat, xususiy tashkilotlarda tarjimonlik va ish yuritishni tashkil etish va boshqarish jarayonlari.

1.2.3. 70230101 – *Lingvistika (sharq tillari bo'yicha)* mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari

- ilmiy tadqiqot faoliyati;
- pedagogik faoliyat;
- madaniyatlararo muloqot faoliyati;
- tashkiliy-boshqaruv faoliyati;
- turli xizmatlar ko'rsatish faoliyati.

1.2.4. 70230101 – *Lingvistika (sharq tillari bo'yicha)* mutaxassisligi bo'yicha magistrning kasbiy vazifalari:

70230101 – *Lingvistika (sharq tillari bo'yicha)* mutaxassisligi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Ilmiy tadqiqot faoliyatida:

- mutaxassislikka mos yangi ilmiy natijalar, ilmiy adabiyotlar yoki ilmiy-tadqiqot loyihalarini tahlil qilish;

- sharq tillari yuzasidan birlamchi manbalarga suyanan holda, innovasion va fundamental tadqiqotlar olib borish, sohaning nazariy va amaliy muammolarini bilish, davr uchun dolzarb, hali ishlanmagan muammolarni aniqlay olish;

- sharq tillarining amaliy hamda nazariy masalalarini yechish uchun ilmiy xulosalar va tavsiyalar berish;

- o'tkazilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari mavzui bo'yicha metodlarni tadqiq qilish va ishlab chiqish;

- ilmiy hisobotlar va tushuntirish xatlarini ishlab chiqish;

- o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish va bibliografiyalarni tuzish;

- ilmiy seminarlar, ilmiy-amaliy konferensiyalar ishida ishtirok etish;

- ilmiy jurnallarga soha bo'yicha ilmiy maqolalar tayyorlasholij ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida mutaxassisligi bo'yicha pedagogik va o'quv-uslubiy faoliyat yuritish;

Pedagogik faoliyatda:

- oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalarida mutaxassislikka oid fanlar hamda sharq va g'arb tillarini o'qitish bo'yicha pedagogik va o'quv-uslubiy faoliyat yuritish;

- zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib noan'anaviy usulda o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;

- ma'ruza matnlari va mashg'ulotlarni o'tkazish rejalarini tuzish;

- yangi pedagogik va axborot texnologiyalarni qo'llash;

- talabalar mustaqil shshini tashkiliy va o'quv-metodik ta'minlashni o'rganish;

- ta'lim berishning zamonaviy hamda masofaviy shakllarini qo'llash;

- tarbiyaviy ishlarni o'tkazish;

- mustaqil ta'lim va ijodiy izlanish natijasida o'kitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi turli usullar, vositalar va boshqa sohalarda o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borish.

Madaniyatlararo muloqot faoliyatida:

- madaniyatlararo muloqotda moderator vazifasini bajarish;

- "til-madaniyat-muloqot" aloqalarini amalga oshirish;

- globallashuv jarayonida milliy-madaniy merosni targ'ib qilish;

- millatlararo madaniy aloqalar rivojida faoliyat olib borish;

- davlat va jamoat tashkilotlarida tarjimon, katta tarjimon, bo'lim boshlig'i, referent va

ularga tenglashtirilgan lavozimlarda kasbiy faoliyat yuritish;

- madaniyatlararo muloqotning turli jabhalarida muayyan tarjima shakllarini, strategiyalarini va usullarini qo'llab tarjima qilish;

- lisoniy, lingvomadaniy, adekvatlikni va kommunikativ maqsadni inobatga olgan holda muloqot olib borish;

- hukumat tadbirlari, rasmiy yig'inlarda, uchrashuvlar va sayyohlik sohasida sinxron tarjima ishlarini amalga oshirish.

Tashkiliy-boshqaruv hamda konsalting xizmat ko'rsatish faoliyatida:

- tashkilot, korxonalar va ularning alohida bo'linmalar tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish;

- xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatini rejalashtirish, hisob-kitob va tahlil qilish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar, huquqiy hamda me'yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqish;

- qabul qilinadigan qarorlarni ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik mezonlari asosida ularni xavf-xatar va oqibatlarini hisobga olgan holda boshqaruv qarorlari variantlarini ishlab chiqishda hamda tanlab olishni asoslashda ishtirok etish;

- shartnomalarni tuzish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni to'plash, tezkor va statistik hisobotni olib borishni tashkil etish, hisobotlarni tuzish tartiblarini aniqlash;

- ishlab chiqarish jarayonlarining atrof-muhit muhofazasi, yong'in, texnika va mehnat xavfsizligini talablariga mosligini monitoring qilish;

- mutaxassislik bo'yicha oila, gender, demografik siyosat, bandlik munosabatlari, iqtisodiy-ijtimoiy va demografik jarayonlarga baho berish hamda jarayonlar prognozini ishlab chiqish;

- sharq va g'arb tillari bo'yicha tarjima ishlarini tashkil etish va amalga oshirish.

2. 70230101 – *Lingvistika (sharq tillari bo'yicha)* ta'lim mutaxassisligi bo'yicha magistrnlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo'lishi, umummetodologik fanlar asosi, iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

- o'rganilgan sharq va g'arb tillaridan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, ilmiy tadqiqot va pedagogika metodologiyasini bilishi va kasbiy faoliyati undan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilishi;

- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;

- o'zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko'rib chiqish va tahlil qilishi, ulardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;

- o'z faoliyatida me'yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalana olishi, o'zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilishi;

- internet tarmog'idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usullari va vositalariga ega bo'lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

- axborot texnologiyalaridan foydalana olish, axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot texnologiyalarining mohiyati va ahamiyatini tushunish, axborot xuruji xavfi va tahdidlarni anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish qobiliyatiga ega bo'lishi.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir qilish, ilmiy seminar,

konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishni bilish;
- ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga innovasion yondashishni bilish;
- ilmiy faoliyati natijalari bo'yicha davlat va xorijda e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash malakalariga ega bo'lishi;
- ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- tashkilot, korxonalar va ularning aloxida bo'linmalar tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- lingvistik tadqiqotlar metodologiyasi, ilmiy tadqiqotlar asoslari, tadqiqot jarayonini tavsiflash, xulosalarni ta'riflash va olingan natijalarni baholash, empirik va nazariy tadqiqot usullarini farqlash, kengaytirilgan tadqiqot rejasini ishlab chiqish, fundamental, amaliy, innovasion loyihalarning bir-biridan farqini bila olish;
- o'rganilayotgan sharq tili nazariy muammolarini tadqiq etish uchun zarur materiallarni izlab topish, tasnif qilish va tizimli asosda tahlil qilish uchun tegishli usullarni;
- lingvistik paleontologiya; sotsiolingvistika; dialektologiya; areal lingvistikani;
- o'rganilayotgan sharq tilidagi ilmiy-nazariy adabiyotlar va manbalarni izlash hamda ular bilan ishlash usullarini;
- o'rganilayotgan mamlakatdagi sotsiolingvistik vaziyat; bilingvizm va polilingvizm; o'rganilayotgan mamlakatda olib borilayotgan til siyosatini;
- loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholash ko'nikmalariga ega bo'lish;
- me'yoriy-huquqiy hujjatlarni iqtisodiy ekspertizadan o'tqazishni bilish.

2.3. Kvalifikatsiya: Filolog, tadqiqotchi-pedagog (sharq va g'arb tillari bilan)

Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, magistraturaning o'quv reja va fan dasturi (magistratura dasturi), profil, o'qib o'rganish natijalari, o'quv davri, e-learning va m-learning texnologiyalari, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, tavakkalchilik, raqobat, raqobatbardoshlik, iqtisodiyot tarmoqlari va sohalari, huquq-tartibot, ekspert xizmati, baholash, sifatni baholash va nazorati, mustaqil ta'lim, ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, malaka amaliyoti, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, ishlab chiqarish, loyihalash, ilmiy tadqiqot jarayoni, maxsus fanlarni o'qitish metodikasi, axborot-kommunikativ tizimlar, zamonaviy tadqiqot metodlari, axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, modellar va modellash, fan ishchi dasturlari, ilmiy tadqiqotlarni tashkil qilish, virtual elektron bilim manbalari, didaktika, nazariya; mamlakatda til siyosati; struktur tilshunoslik, lingvopragmatika; kognitiv tilshunoslik; kompyuter lingvistikasi; lingvokulturologiya; psixolingvistika; etnolingvistika; sotsiolingvistika; dialektologiya.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQILGAN:

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Rektor  G.Sh.Rixsiyeva

2023-yil « _____ » _____

M.O'.



KELISHILGAN:

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish
tadqiqotlari markazi

Direktor  Sh.Yakubov

2023-yil « _____ » _____

M.O.



O'zbekiston Respublikasi Fanlar
akademiyasi Abu Rayhon Beruniy
nomidagi Sharqshunoslik instituti

Direktor  B.Abduxalimov

2023-yil « _____ » _____

M.O.



O'zbekiston Xalqaro islom akademiyasi

Rektor  M.Komilov

2023-yil « _____ » _____

M.O.



O'zbekiston davlat jahon tillari
universiteti

Rektor v.v.b.  B.Kulmatov

2023-yil « _____ » _____

M.O.



Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
70230101 – Lingvistika (sharq tillari bo'yicha) magistratura mutaxassisligi malaka talablarining
ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta'lim muassasalari va asosiy kadrlar iste'molchilari o'rtasida

KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent sh.

“ ___ ” _____ 2023-yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti direktori B.Abduxalimov, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti rektori v.v.b. B.Kulmatov, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti rektori G.Rixsiyeva birgalikda TDSHuda ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari va o'quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

70230101 – Lingvistika (sharq tillari bo'yicha) magistratura mutaxassisligi

Malaka talablari hamda o'quv rejani ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimiin 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi 5847-son farmoni, 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-2909-son, 2017-yil 27-iyuldagi “Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3151-son, 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-3775-son, 2019-yil 17-iyundagi “2019/2020-o'quv yilida O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida”gi PQ-4359-son, 2020-yil 16-apreldagi “Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-4680-son Qarorlariga hamda oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me'yoriy-huquqiy xujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o'quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste'molchilari tomonidan qo'yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari o'quv reja va fan dasturlari xamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o'quv rejani o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik
instituti direktori

B.Abduxalimov

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
rektori v.v.b.

B.Kulmatov

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
rektori

G.Rixsiyeva